

ZIRHLI TANK QUROLLARIGA TEGISHLI BO'LGAN MASHINALARNING PAYDO BO'LISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8189937>

O.Yo'ldoshov

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Texnik ta'minot kafedrasи katta oqituvchisi*

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida chuqur islohotlar jarayoni kechayotgan ayni bir paytda Qurolli Kuchlarga bo'lgan talab o'zgardi, ya'ni armiya harakatchan, ixcham va har qanday vazifani tezkorlik bilan bajara olishi kerak. Buning uchun armiya safidagi harbiy xizmatchilar o'z sohasining ustasi, harbiy texnikalarni puxta egallagan, yuksak aql-zakovatli mutaxassislardan iborat bo'lishi kerak. Mazkur maqola Zirhli tank qurollariga tegishli bo'lgan mashinalarning paydo bo'lismiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar

zirhli mashina, zirhli texnika qurollari va texnikalari, tank, zirhli avtomobil, bronetransporter, rivojlangan mamlakatlar, tizim, kompleks, kontrakt, modernizatsiya.

18 – asrga kelib fan va texnikaning rivojlanishi o'q otar qurollarning ham takomillashuviga olib keldi. Tez va uzoqqa otadigan miltiqlar hamda pulemyotlar yaratildi. Bu esa o'z navbatida urush olib borish taktikasini ham o'zgartirib yubordi. Bu vaqtga kelib urushlar ko'proq «pozitsiyali» tusga kirdi, ya'ni qarama – qarshi tomonlar ko'proq okoplarda joylashib olgan holda jang qilishga majbur bo'lib qoldi. Buning oqibatida urushlar juda uzoq muddatga cho'zilib ketdi. Bu holat shaxsiy tarkibni yaxshi himoya qila oladigan yangi rusumdag'i texnika yaratilishiga turtki bo'ldi.

Jahondagi ko'pgina rivojlangan davlatlarning qurol-aslaxa zaxiralari, birinchi jahon urushida jangovar gusenitsali mashinalarning jang maydonida paydo bo'lismiga bog'liq. 1900 yildan Yevropa firmalarida ishlab chiqarilgan tanklarning 1916 yil g'arbiy frontda haqiqiy qo'llanishi zirhli mashinalarning takomillashtirilishi va yaratilishi bo'yicha mantiqiy xulosa qabul qilindi.

Biroq, agar keng ko'lamda tarixiy nuqtai nazardan jangovar mashinalarning paydo bo'lish muammolariga qaraydigan bo'lsak, ishonch bilan shuni aytish mumkinki, ular o'zining kelib chiqish tarixini, eramizdan oldingi 2-chi ming yillikdan boshlab to hozirgi davrgacha Qadimgi Sharq davlatlari orasidagi

janglarda qo'llanilgan jangovar aravalari va eramizdan oldingi IX asrda aysorlar (Yaqin Sharq mamlakatlari, AQSh va boshqa mamlakatlarda yashovchi, somiy tillaridan birida so'zlashuvchi xalq) tomonidan qo'llanilgan jangovar mashinalardir.

Qanday bo'lishidan qattiy nazar, lekin zanjirli jangovar mashinalarni kelib chiqish tarixi, Buyuk Britaniya va Fransiyaning birinchi jahon urushidagi odat tusiga kirgan uzoq muddatli pozitsiyalarda turib olib boriladigan urush xususiyatlarini o'zgartirishga harakat qilish maqsadida tanklarni yaratgan yilidan boshlanadi.

1917 yilda Kambre (Fransiya) yaqinidagi jangda ingilizlarning Mk-IV tanklarini ommaviy qo'llashi vaziyatni keskin o'zgartirdi.

Xo'sh "tank" nima va uni ishlab chiqarish uchun nima turtki bo'ldi?

Tank - bu urushning mashinalar davrining quroli - u o'tgan davrdagi ishlab chiqarishning texnik jarayonini ilmiylik jihatdan yuqori natijalarini o'z ichiga singdirgan. Bu yutuqlarga birinchidan yuqori o'tuvchanligi bilan ajralib turuvchi o'ziyurar aravalarni yaratish, ikkinchidan ularni qurollantirish va mustahkam zirh bilan himoyalash.

Tanklarning ilk marta jangda qatnashishi 1-jahon urushi paytida, **1916 yilning 15 sentabrida** Angliya - Germaniya frontida amalga oshirildi. Shuning uchun ham bu sana tank qo'shinlarining tug'ilgan kuni deb e'tirof etiladi.



1-rasm. Angliyada ishlab chiqarilgan birinchi tank

Garchi ilk tanklarning texnik ko'rsatkichlari yaxshi bo'lmasada, ularning jang maydonida paydo bo'lishi Germaniya askarlarida vahima uyg'otdi va tanklar 5 km masofada front chizig'ini yorib o'tishdi. Shu tariqa batamom yangi turdag'i texnika, ya'ni «tank»lar boshqa davlatlarda ham ishlab chiqarila boshladи. Tank asosan dushmanning mustahkamlangan himoya chizig'ini yorib o'tishga mo'ljallangan.

Mashina texnikalar soxasida erishilgan bir necha amalga oshgan ixtiolar jahondagi ko'pgina davlatlarning vakillariga tegishli. Quyida jangovar zanjirli mashinalarning qisqacha rivojlanishini tarixiy ma'lumotlari elementlari bo'yicha keltirilgan.

1. Mexanik dvigatel- kichik hajmli quvvatli ichki yonuv dvigateli:

- angliyalik Djeyms Uattning bug' mashinasi- 1776 y.;

- nemis ixtirochisi Nikolausa Avgusta Ottoning gazli dvigateli - 1876 y.;

- nemis ixtirochisi Gotlib Daymlerning benzinli dvigateli - 1883 y.;

- rus injenerlari Yagodzinski va O.S. Kostovichning silindrлari gorizontal joylashgan benzinli dvigateli;

- nemis ixtirochisi Rudolf Dizelning birinchi dizel dvigateli - 1892 y.

2. Zanjirli harakatlantirgich:

- 1818 yilda - fransuz Dyuban "Temir yo'lda harakatlanadigan ekipaj" yaratdi;

1837 yilda - rus armiyasi shtab-kapitani D. Zagryajskiy "g'ildirakli izda harakatlanadigan ekipaj" loyihasini taqdim qildi (ko'p zvenoli sharnirli temir zanjir tasmali arava).

3. Qurol-aslaho:

-1850 yildan boshlab pushkalarini o'qlash kazyonnik qismidan boshlandi.

-1850 yilda amerikalik Richard Dj. Gatling ko'p stvolli pulemyot modelini ishlab chiqdi;

- 1872 yilda rus ixtirochisi V.S. Baranovskiy ortga qaytish mexanizmli 2,5 dyuyumli dala pushkasini loyihalashtirdi;

- 1884 yilda amerikalik Xayram Maksim birinchi tank pulemyotini yaratdi.

4. Zirh:

- birinchi marta zirhli po'latni 1742 yilda ingliz Benjamin Xuntsmen tomonidan qabul qilingan (yaratilgan).

1856 yilda rus muhandisi V.S. Pyatov zirh plitalarini prokatka (2 ta temir roliklar orasidan siqilgan holatda biron bir shaklda chiqarilgan mahsulot) yo'li bilan ishlab chiqarishni taklif qildi.


Fransuz ixtirochisi Per Martin 1864 yilda "marten usuli" (po'lat eritadigan pech) bilan po'lat olish jarayonini ixtiro qildi.

Birinchi zirh XIX asrning 80-yillarda kemalarda ishlatilgan, tank zirhlari 1900 yildan beri zirhli vagonlar deb ataladi.

Zirh, tezotar quollar, zanjirli harakatlantirgich, ichki yonuv dvigatellari, garchi texnologiyaning turli sohalarida bo'lsa ham, allaqachon ishlatilgan. Faqat ularni bitta mashinada harakatchanlik va manyovrlik, otish kuchi va zirh himoyasini ta'minlaydigan elementlarni joylashtirish qolgan edi.

"Tank" so'zi ingilizcha «TANK» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ya'ni bak (suyuqlik solinadigan katta idish) yoki sisterna degan ma'noni bildiradi. Ismning kelib chiqishi quydagicha: birinchi tanklarni frontga jo'natishda Britaniya kontrrazvedkasi Angliyada shoh hukumati tomonidan ichimlik suvi uchun

sisternalar partiyasi buyurtma qilinganligi haqida mish-mishlar tarqatdi, va tanklar sisterna niqqobi ostida temir yo'l orqali jo'natildi. Qizig'i shundaki, Rossiyada yangi jangovar mashina dastlab "Loxan" (tog'ara) deb nomlangan.



2-rasm. "Vezdexod" g'ildirak-zanjirli zirhli mashina

Xulosa o'rnidida shuni aytish mumkinki, zamonaviy zirhli tank qurol va texnikalari – qo'shinar harakatchanligining moddiy negizi bo'lib, ularning tezkor va taktik harakatlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, zirhli qurol va texnikalarsiz biror bir harbiy bo'linma o'ziga yuklatilgan jangovar vazifalarni o'z vaqtida kafolatli bajara olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov F. Sh., Bo'linmalar tarkibida zanjirli zirhli tank texnikalariga texnik xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish va o'tkazish. O'quv qo'llanma. II- qism ChOTQMBYu -2016.
2. Internet sayti. www.kommersant.ru